



DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF MANAGEMENT OF THE MOVEMENT OF GOODS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE REGIME OF PROCESSING IN THE CUSTOMS TERRITORY ON THE BASIS OF ECONOMETRIC AND SCENARIO ANALYSIS

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich.

Head of the Department of the Customs Institute. Shukrullo1965@bk.ru

Article history:		Abstract:
Received:	26 th March 2026	This article examines the directions for improving the goods movement management system under the customs processing regime based on econometric and scenario analysis. The study develops approaches aimed at increasing the efficiency of customs procedures, optimizing logistics flows, and creating favorable conditions for participants in foreign economic activity. Using econometric models, the factors affecting customs operations are assessed, and the development prospects of the system are analyzed through various scenarios. As a result, scientific and practical recommendations are proposed to strengthen digitalization, monitoring, and forecasting mechanisms in managing the customs processing regime.
Accepted:	24 th April 2026	

Keywords: customs territory, processing regime, goods movement, econometric analysis, scenario analysis, logistics, customs control, foreign economic activity, digitalization, forecasting.

BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH REJIMI DOIRASIDA TOVARLAR HARAKATINI BOSHQARISH TIZIMINI EKONOMETRIK HAMDA SSENARIY TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich

Bojxona instituti kafedra boshlig'i. Shukrullo1965@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada bojxona hududida qayta ishlash rejimi doirasida tovarlar harakatini boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari ekonometrik va ssenariy tahlili asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda bojxona jarayonlarining samaradorligini oshirish, logistika oqimlarini optimallashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ekonometrik modellar yordamida bojxona operatsiyalariga ta'sir etuvchi omillar baholanib, turli ssenariylar asosida tizimning rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Natijada bojxona hududida qayta ishlash rejimini boshqarishda raqamlashtirish, monitoring va prognozlash mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: bojxona hududi, qayta ishlash rejimi, tovarlar harakati, ekonometrik tahlil, ssenariy tahlil, logistika, bojxona nazorati, tashqi iqtisodiy faoliyat, raqamlashtirish, prognozlash.

Аннотация: В данной статье исследуются направления совершенствования системы управления движением товаров в режиме переработки на таможенной территории на основе эконометрического и сценарного анализа. В исследовании разработаны подходы, направленные на повышение эффективности таможенных процессов, оптимизацию логистических потоков и создание благоприятных условий для участников внешнеэкономической деятельности. С помощью эконометрических моделей оценены факторы, влияющие на таможенные операции, а также проанализированы перспективы развития системы на основе различных сценариев. В результате сформированы научно-практические рекомендации по усилению механизмов цифровизации, мониторинга и прогнозирования при управлении режимом переработки на таможенной территории.



Ключевые слова: таможенная территория, режим переработки, движение товаров, эконометрический анализ, сценарный анализ, логистика, таможенный контроль, внешнеэкономическая деятельность, цифровизация, прогнозирование.

KIRISH

Bugungi kunda bojxona organlari faoliyatida raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va analitik usullardan foydalanish darajasi tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, qayta ishlash rejimida tovarlar harakatini boshqarishda ayrim muammolar, jumladan ma'lumotlar almashinuvidagi uzilishlar, logistika xarajatlarining yuqoriligi, bojxona rasmiylashtiruv vaqtining cho'zilishi va risklarni baholash tizimining yetarli darajada takomillashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bojxona jarayonlarini ilmiy asoslangan usullar orqali tahlil qilish va boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bojxona hududida qayta ishlash rejimi doirasida tovarlar harakatini boshqarish tizimini ekonometrik hamda ssenariy tahlili asosida takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida ekonometrik modellar yordamida bojxona jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar baholanadi, turli iqtisodiy va tashkiliy ssenariylar asosida tizimning rivojlanish istiqbollari prognoz qilinadi hamda samarali boshqaruv mexanizmlari taklif etiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda bojxona hududida qayta ishlash rejimini boshqarishda zamonaviy ekonometrik yondashuvlar va ssenariy tahlili metodologiyasidan foydalanish asosida tizim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib beriladi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar bojxona organlari faoliyatini optimallashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay biznes muhitini yaratish hamda mamlakatning eksport-import operatsiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

USULLAR

Mazkur tadqiqotda bojxona hududida qayta ishlash rejimi doirasida tovarlar harakatini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, statistik, ekonometrik va ssenariy tahlili usullari kompleks tarzda qo'llanildi.

Avvalo, bojxona hududida qayta ishlash rejimining amaldagi holatini o'rganish maqsadida tizimli tahlil usuli asosida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro bojxona amaliyoti hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali qayta ishlash rejimining iqtisodiy mazmuni, uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni hamda tovarlar harakatini boshqarishdagi mavjud muammolar aniqlandi.

Tadqiqotning empirik bazasini bojxona organlari statistik ma'lumotlari, tashqi savdo ko'rsatkichlari, logistika xarajatlari va bojxona rasmiylashtiruv bilan

bog'liq ma'lumotlar tashkil etdi. Mazkur ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik guruhlash, taqqoslash, dinamik qatorlar tahlili va indeks usullaridan foydalanildi.

Ekonometrik tahlil doirasida bojxona hududida qayta ishlash rejimining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida regressiya modellari qo'llanildi. Jumladan, bojxona rasmiylashtiruv muddati, logistika xarajatlari, eksport-import hajmi, raqamlashtirish darajasi va bojxona nazorati samaradorligi kabi omillarning o'zaro bog'liqligi ekonometrik modellashtirish asosida baholandi. Tadqiqotda ko'p omilli regressiya modeli, korrelyatsion tahlil hamda prognozlash usullaridan foydalanildi.

Ko'p omilli regressiya modeli quyidagi umumiy ko'rinishda ifodalandi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n + \varepsilon$$

bu yerda:

Y — qayta ishlash rejimi samaradorligi ko'rsatkichi;

$X_1, X_2, \dots, X_n$ — ta'sir etuvchi omillar;

β_0 — erkin had;

$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ — regressiya koeffitsiyentlari;

ε — tasodifiy xatolik.

Shuningdek, tadqiqotda ssenariy tahlili usuli qo'llanilib, bojxona tizimini rivojlantirishning bazaviy, optimistik va pessimistik ssenariylari ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv orqali raqamlashtirish darajasi oshirilishi, bojxona tartib-taomillari soddalashtirilishi va logistika infratuzilmasining rivojlanishi natijasida tizim samaradorligining o'zgarishi prognoz qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni verifikatsiya qilish, modellarning adekvatligini baholash hamda ularning amaliy qo'llash imkoniyatlarini tekshirish usullaridan foydalanildi. Natijada bojxona hududida qayta ishlash rejimi doirasida tovarlar harakatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.


NATIJALAR.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi 2020-2025-yillar oralig'idagi 5 yillik ma'lumotlariga ko'ra tadqiqot davomida qayta ishlash rejimining iqtisodiy samarasi yuqori ekanligi hamda bevosita eksportni takomillashtirishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan mazkur rejimni takomillashtirish va tartibotlarni soddalashtirish nafaqat mamlakat iqtisodiy rivojiga xizmat qiladi, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlashga hamda mamlakatning to'lov balansini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri - xomashyo (masalan, bug'doy yoki ehtiyot qismlar) importi va ularni qayta ishlab tayyor mahsulot sifatida

reeksport qilishning mamlakat YAIM va tashqi savdo balansiga ta'sirini baholashdan iborat.

Bojxona qo'mitasi 2020-2025-yillar orlig'ida qayta ishlash rejimlariga joylashtirilgan tovarlar tahlili TIF TN kodlari asosida amalga oshirildi.

Mazkur tahlil natijalariga asosan Qayta ishlash (IM-51) rejimi bo'yicha bug'doy, dizel, kungaboqar yog'i, aralash o'g'itlar va metal prokatlar netto og'irligi va statistik qiymati bo'yicha yuqori ko'rsatkichga egaligini ko'ramiz (1 va 2-rasmlar).



Rasm 1. O'zbekiston Respublikasida 2020-2025-yillarda Qayta ishlash rejimlari bo'yicha 5 turdagi tovarlarning netto og'irligi bo'yicha tahlili

O'zbekiston Respublikasida 2021–2025-yillar davomida qayta ishlash rejimlari bo'yicha tovarlarning netto og'irligi tarkibida eng yuqori ulushni bug'doy mahsuloti egallagan. Xususan, 2025-yilda bug'doyning netto og'irligi keskin oshgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich tahlil qilingan yillar ichida eng yuqori darajaga yetgan. Bu holat mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozor talabining ortishi hamda qayta ishlash sanoati uchun xomashyo ehtiyojining ko'payishi bilan izohlanadi.

2021–2023-yillarda bug'doy mahsulotlari hajmi nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa, 2024-yilda ham yuqori ko'rsatkich saqlanib qolgan. 2025-yilda esa mazkur tovar turi bo'yicha netto og'irlik boshqa tovarlarga nisbatan bir necha barobar yuqori ekani kuzatiladi.

Dizel mahsulotlari bo'yicha tahlil qilinganda, 2021–2025-yillarda o'rtacha o'sish tendensiyasi mavjudligi ko'rinadi. Ayniqsa, 2025-yilda dizel mahsulotlarining netto og'irligi oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu transport-logistika tizimi faolligining kuchayishi va sanoat ehtiyojlarining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kungaboqar yog'i tovar guruhi bo'yicha ko'rsatkichlar nisbatan past darajada saqlangan bo'lsa-da, yillar kesimida ma'lum o'sish dinamikasi kuzatiladi. Bu qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini anglatadi.


Aralash o'g'itlar bo'yicha ko'rsatkichlar ayrim yillarda o'sgan bo'lsa-da, umumiy hajm boshqa tovarlarga nisbatan pastligicha qolgan. Bu qishloq xo'jaligi sohasida mineral o'g'itlar importi va qayta ishlash hajmining cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin.

Metall prokatlar bo'yicha esa tahlil qilingan yillarda nisbatan barqaror, lekin kichik hajmli harakat kuzatilgan. Mazkur mahsulot turining qayta ishlash rejimlaridagi ulushi past bo'lsa-da, qurilish va sanoat sohasidagi talabning saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari qayta ishlash rejimlari doirasida asosiy ulush qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda aksariyat tovar turlari bo'yicha netto og'irlikning oshishi tashqi iqtisodiy faoliyat hajmining kengayishi, logistika infratuzilmasining rivojlanishi va qayta ishlash sanoati faolligining kuchayganini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2021–2025-yillarda qayta ishlash rejimlari bo'yicha tovarlarning statistik qiymatida eng katta ulushni bug'doy mahsuloti egallagan. Barcha yillar davomida mazkur tovar turi bo'yicha ko'rsatkichlar boshqa mahsulotlarga nisbatan yuqori bo'lib, ayniqsa 2023–2025-yillarda sezilarli o'sish kuzatilgan. 2025-yilda

bug'doyning statistik qiymati tahlil qilingan davrdagi eng yuqori darajaga yetgan bo'lib, bu tashqi savdo aylanmasining kengayishi, oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi va qayta ishlash sanoatida xomashyoga ehtiyoj yuqoriligi bilan izohlanadi.



Rasm 2. O'zbekiston Respublikasida 2020-2025-yillarda Qayta ishlash rejimlari bo'yicha 5 turdagi tovarlarning statistik qiymat bo'yicha tahlili

Dizel mahsulotlari bo'yicha statistik qiymat ham yillar kesimida o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2025-yilda mazkur mahsulot bo'yicha ko'rsatkich keskin oshgani transport-logistika sohasida yoqilg'iga bo'lgan talabning ortishi va sanoat faolligining kuchayishi bilan bog'liqdir.

Kungaboqar yog'i bo'yicha tahlil qilinganda, statistik qiymat nisbatan past bo'lsa-da, ayrim yillarda o'sish dinamikasi kuzatiladi. Bu mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash hajmi ortib borayotganini anglatadi.

Aralash o'g'itlar bo'yicha ko'rsatkichlar 2024-yilda nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ma'lum darajada pasayish kuzatilgan. Bu holat qishloq xo'jaligi sohasida tashqi bozor konyunkturasi va import hajmlarining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin.

Metall prokatlar bo'yicha statistik qiymat boshqa tovarlarga nisbatan past ulushni tashkil etgan. Biroq 2025-yilda ushbu mahsulot turi bo'yicha ma'lum o'sish

qayd etilgan bo'lib, bu qurilish va sanoat tarmoqlarida metall mahsulotlariga bo'lgan talabning oshganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari qayta ishlash rejimlari doirasida tovarlar statistik qiymatining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va energetika mahsulotlariga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2025-yilda aksariyat tovar turlari bo'yicha statistik qiymatning o'sishi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining faollashgani, qayta ishlash sanoatining rivojlangani hamda eksport-import operatsiyalari hajmining kengayganini ifodalaydi.

Mamlakatimizda bojxona hududida qayta ishlash hamda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimlari doirasida xomashyolar qayta ishlanib tayyor mahsulot sifatida reeksport qilinadi. Bu ikki rejim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli afzalliklarga hamda risklarga ega (1-jadval).

1-Jadval



O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida qayta ishlash ryejimini qiyosiy tahlili¹

Ko'rsatkichlar	Bojxona hududida qayta ishlash	Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash
Maqsad	Xorijiy xomashyoni mahalliy quvvatlarda qayta ishlab eksport qilish	Mahalliy xomashyoni xorijda (texnologiya yo'qligi sababli) qayta ishlab qaytarib olib kelish.
Soliq imtiyozlari	Boj va QQSdan to'liq ozod etish yoki qaytarib berish (drawback)	Qayta ishlash qiymati va tashish xarajatlaridan boj to'lanadi
Iqtisodiy afzalligi	Ishchi o'rinlari yaratish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish	Zamonaviy xorijiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati
Asosiy xavf (Risk)	Tovarni ichki bozorga noqonuniy chiqarib yuborish xavfi	Valyuta chiqib ketishi va xorijga bog'liqlik

1-jadvalga binoan Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashda asosiy risk

2-Jadval

O'zbekiston Respublikasida Qayta ishlash rejimlari ma'lumotlari ryegressiya modeli natijalari tahlili²

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	P-qiymati
$\ln(\text{Time})$	-0.421	0.115	-3.66	0.002
$\ln(\text{Exemptions})$	0.285	0.084	3.39	0.005
$\ln(\text{RawMaterial})$	0.892	0.042	21.24	0.000
R^2 (Det. koeffitsiyenti)	0.864	F-statistika	42.15	Prob > F: 0.00

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, vaqt omili nuqtayi nazaridan vaqt koeffitsiyenti manfiy (-0.42). Bu shuni anglatadiki, bojxona jarayonlarida vaqtning 10% ga qisqarishi eksport hajmining 4.2% ga oshishiga xizmat qiladi. Elastiklik nuqtayi nazaridan xomashyo qiymati eng yuqori ijobiy ta'sirga ega (0.89), demak, iqtisodiyot hamon ekstensiv xomashyo olib kirishga bog'liq.

Qayta ishlash rejimidagi *multiplikator effekti* (M_p) - bu import qilingan xomashyoning qiymati va uni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan yakuniy mahsulotning eksport qiymati o'rtasidagi zanjirli bog'liqlikdir. Multiplikator 2.5 ga teng va iqtisodiyotda yuqori texnologik, ko'p bosqichli qayta ishlash mavjudligini anglatadi. Model natijasida Qayta ishlash rejimiga kiritilgan har 1 dollarlik xomashyo, iqtisodiyotga 2.5 dollarlik qo'shilgan qiymat olib kelishi ekonometrik isbotlandi.

Iqtisodiyotda qayta ishlash multiplikatori Keyns va Leontyevning "Xarajatlar-Natijalar" (Input-Output) modeliga asoslanadi. Tadqiqot natijasida model quyidagicha ifodalanadi (2-formula):

$$V_{total} = M_{raw} \times m_{eff} \quad (2)^3$$

Bu yerda:

V_{total} - iqtisodiyotga kelgan umumiy foyda (YAIMga hissa);

M_{raw} - qayta ishlash rejimida olib kirilgan 1 dollarlik xomashyo;

m_{eff} - qayta ishlash multiplikatori.

3-Jadval

¹ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

² Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

³ Muallif ishlanmasi



O'zbekiston Respublikasida Qayta ishlash rejimlari tarmoqlar kesimida multiplikatorning taqsimlanishi⁴

TIF TN kodi	Xomashyo (1\$)	Qayta ishlash bosqichi	Yakuniy mahsulot	Multiplikator (m)
100199	Bug'doy	Tegirmon - Makaron - Qadoqlash	Eksport un/makaron	1.8
870840	Avto-qism	Yig'u - Lokalizatsiya - Test	Tayyor avtomobil	2.8
271012	Benzin (xom)	Kimyoviy qayta ishlash - Polimer	Plastik buyumlar	3.2

3-jadval tahlillariga ko'ra, 2020-2025-yillar oralig'ida qayta ishlash bo'yicha yuqori ulushga ega bug'doy, avto ehtiyot qismlari, benzin xomashyolari tarmoqlar kesimida multiplikatorning taqsimlanishi tahlil qilingan. Eng yuqori ko'rsatkich benzin xomashyosi ulushiga to'g'ri kelib, 3.2 qiymatga ega. Bu esa 1 dollar benzin xomashyosini kimyoviy qayta ishlash natijasida 3.2 dollarlik tayyor mahsulot olinishini isbotlaydi.

Ekonometrik tahlil shuni ko'rsatadiki, qayta ishlash rejimi multiplikatorining yuqori bo'lishiga ikkita asosiy omil ta'sir qiladi. Birinchidan, bojxona to'lovlarining nol stavkasi, bu aylanma mablag'lar taqchilligini oldini oladi va ishlab chiqaruvchiga ko'proq xomashyo sotib olish imkonini beradi (Likvidlik effekti). Ikkinchidan, mahalliy komponentlar ulushi, agar qayta ishlash jarayonida mahalliy xomashyo ulushi kamida 30% bo'lsa, multiplikator \$1.8 dan 2.5\$ gacha o'sadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bojxona hududida qayta ishlash rejimi O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim iqtisodiy instrumentlardan biri ekanligini ko'rsatdi. 2020–2025-yillar davomida qayta ishlash rejimlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar tahlili ushbu rejimning eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hamda qo'shilgan qiymat yaratishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, bug'doy, dizel mahsulotlari, kungaboqar yog'i, aralash o'g'itlar va metall prokatlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qayta ishlash sanoatining iqtisodiyotdagi o'rnini kuchayib borayotganini anglatadi.

Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarida vaqt omili eksport hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Jumladan, bojxona jarayonlari davomiyligining qisqarishi eksport hajmining oshishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlari hamda qayta ishlash uchun olib kirilgan xomashyo hajmi eksport samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot davomida qayta ishlash rejimining multiplikator effekti ham tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, qayta ishlash rejimiga jalb qilingan har bir 1 AQSH dollarlik xomashyo iqtisodiyotga o'rtacha 2,5 AQSH dollari miqdorida qo'shilgan qiymat olib kelishi aniqlandi. Ayniqsa, kimyoviy qayta ishlash va avtomobil sanoatida multiplikator koeffitsiyenti yuqori ekani mazkur tarmoqlarning strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda qayta ishlash rejimlarini qo'llashda identifikatsiyalash murakkabligi, texnologik yo'qotishlarni aniqlashdagi byurokratik to'siqlar, monitoring tizimlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi hamda ayrim hollarda iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni baholashdagi muammolar mavjud. Mazkur holatlar bojxona nazorati samaradorligini pasaytirishi va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

bojxona hududida qayta ishlash rejimlarini to'liq raqamlashtirish va yagona elektron monitoring tizimini joriy etish;

⁴ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



qayta ishlash jarayonida foydalanilgan xomashyoni identifikatsiyalashda sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish;

bojxona rasmiylashtiruvi muddatlarini qisqartirish orqali eksport salohiyatini oshirish;

qayta ishlash normalarini belgilashda byurokratik tartiblarni soddalashtirish hamda avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlarini joriy qilish;

yuqori multiplikator effektiga ega tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ularga bojxona imtiyozlarini kengaytirish;

bojxona nazorati va logistika infratuzilmasi o'rtasida integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish;

risklarni boshqarish tizimida ekonometrik prognozlash modellari va ssenariy tahlili mexanizmlaridan keng foydalanish.

Umuman olganda, bojxona hududida qayta ishlash rejimini takomillashtirish mamlakat eksport salohiyatini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro savdo tizimidagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-son Farmoni.
2. Peter A.G. van Bergeijk, Maaike Okano-Heijmans, and Jan Melissen. (2011). Economic diplomacy: Economic and political perspectives.
3. Stephen Woolcock, Nicholas Bayne (2011). The New Economic Diplomacy: Decision-Making and Negotiation in International Economic Relations (Global Finance).
4. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – 11th ed. – Pearson Education, 2018.
5. Gujarati D. N., Porter D. C. Basic Econometrics. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
6. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 7th ed. – Cengage Learning, 2020.
7. Hausman J. A. Specification Tests in Econometrics // Econometrica. – 1978. – Vol. 46(6). – P. 1251–1271.
8. Leontief W. Input-Output Economics. – 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 1986.
9. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
10. World Customs Organization (WCO). Revised Kyoto Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures. – Brussels, 2021.
11. World Bank. Logistics Performance Index Report. – Washington DC, 2023.
12. International Monetary Fund (IMF). Direction of Trade Statistics Yearbook. – Washington DC, 2024.
13. OECD. Trade Facilitation Indicators: Monitoring Policies and Their Impact on Trade Costs. – Paris, 2023.
14. UNCTAD. Digitalization of Customs and Trade Facilitation Report. – Geneva, 2022.
15. Mirzayev A., Xasanov Sh. Bojxona logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. – 2023. – №4. – B. 55–67.
16. Abduraxmonov Q. H., Vahobov A. V. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021.
17. Rasulov A. Bojxona nazoratini raqamlashtirish va uning samaradorligi // "Moliya va bank ishi" ilmiy jurnali. – 2024. – №2. – B. 88–96.
18. Tinbergen J. Econometrics. – New York: McGraw-Hill, 1967.
19. Greene W. H. Econometric Analysis. – 8th ed. – Pearson, 2018.